



POLAND



POLAND

**SIFAT- OT TURKUMIDAGI ORALIQ SO‘ZLARNING IZOHLI
LUG‘ATDAGI1 IFODASI****Asadov To‘lqin Hamroyevich**Buxoro davlat universiteti,
O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrasi dotsenti, f.f.n.<https://doi.org/10.5281/zenodo.14936542>

Annotatsiya: Mazkur maqolada so‘z turkumlari borasida tadqiqotlar olib borgan olimlar e‘tirof etilib, ikki va undan ortiq so‘z turkumida ham tadqiq etiladigan oraliq so‘zlar, jumladan, sifat-ot so‘zlarning funksional-semantik tabiati, ushbu so‘zlarning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi ifodasi, sifat-ot orasidagi so‘zlarning turkumlilikka munosabati borasida fikr-mulohazalar bayon etilgan. Keltirilgan nazariy ma‘lumotlar lug‘atdan olingan misollar bilan izohlangan.

Kalit so‘zlar: so‘z turkumi, semantik, morfologik, sintaktik mezon, oraliq so‘z, sifat-ot so‘z, predmetlik va belgi-xususiyat, ko‘pma’nolilik, polifuksiyanallik, omonimiya.

Ma‘lumki, barcha tillar so‘zlari o‘zining grammatik tabiati, semantik xususiyatiga qarab turlicha guruhlariga (kategoriyalarga) bo‘linadi. Grammatik qurilishi har xil bo‘lgan tillardagi so‘zlar semantik, grammatik, qo‘llanish doirasi, o‘zaro birikishi doim ham uyg‘un bo‘lavermaydi. Asosiysi, so‘zlarni turkumlarga ajratishda tillar uchun umumiy sanalgan yagona bir qonuniyat ham mavjud emas. Muayyan bir tilda so‘zlarni turkumlash shu tildagi so‘zlarning o‘ziga xos ma‘nosi, grammatik xususiyati, so‘z yasash tizimi va so‘zlarning o‘zaro birikish qobiliyati asosida ishlab chiqilishi lozimki, hatto qardosh tillar oilasida ham so‘zlarni turkumlashda qandaydir farqlanishlar sezilishi mumkin holat sanaladi[1,5].

Ma‘lumki, tilshunoslik nazariyasida so‘zlarni turkumlashtirish (kategoriyalashtirish) da semantik, morfologik, sintaktik mezonga amal qilish ommalashgan. Jahon tilshunosligi, turkologiya, o‘zbek tilshunosligida so‘zlarni turkumlashda ayrim tilshunoslar so‘zning leksik ma‘nosini yetakchi qilib olsa, boshqalari so‘zning shakli va o‘zgarishini yoki so‘zning gap tarkibidagi vazifasini yetakchi omil sifatida baholashadi. Ta’kidlash o‘rinliki, so‘z turkumlarini belgilashda antik tilshunoslikda, asosan, semantik mezonga tayanib ish ko‘rilgan. Morfologik va sintaktik xususiyatlar esa qo‘shimcha – ikkilamchi, ya’ni

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Т.: Ўз.мил.энц., 2006-2008.



soʻzning maʼno xususiyatidan kelib chiqadigan belgi sifatida qabul qilingan[3;5;6].

Professor J.Eltazarov rahbarligida yuzaga kelgan A.Botirovaning “Oʻzbek tilida soʻz turkumlarining birlamchi va ikkilamchi vazifasining funksional-sintaktik tahlili” nomli dissertatsiyasida lugʻat qatlamidagi ayrim soʻzlarning ikki paradigma (soʻz turkumi)dan ham oʻrin egallay olishi (oraliq soʻz ekanligi) soʻzlarni turkumlashda uch asosli mezonga soya solishi haqida haqli shunday fikr kuzatiladi: “Bu mezonlar tilning paydo boʻlishi, shakllanishi va tarqqiyoti kesimida soʻzning rivoji muammosi bilan bir tomondan, soʻzlarning polifunksionallik xususiyatlari bilan ikkinchi tomondan bogʻlanib ketadi. Boshqacha aytganda, diaxronik jihatdan ayrim soʻzlarning oʻz turkumlarini tark etib, boshqa turkumlarga koʻchishi hodisasi bilan birga, tilning muayyan bir sinxronik holatida kamida ikki paradigmaga kirish imkoniyatining saqlanib turishi bu mezonlarning har doim ham birday amal qila olmasligini koʻrsatadi. Chunki til dalillari soʻzni turkumlarga aratishning semantik, sintaktik, morfologik mezoni istalgan soʻzni biror turkumga kiritish uchun yetarli boʻlavermaydi”[2,7]. Bundan xulosa chiqadiki, soʻz turkumlari va ularni farqlash bilan bogʻliq muammolarning yuzaga kela borishiga baʼzida tilning ijtimoiyligi ham sabab boʻladi. Umuman, tining ijtimoiyligi evazi oʻlaroq ayrim soʻzlar polifunksionallik kasb eta boradi. Bu esa ularda ikki va undan ortiq paradigmada ham oʻrin topa olish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Lekin soʻzdagi polifunksionallik doim ham bir turkumdagi soʻzni boshqa turkumga oʻtib ketishiga yoʻl ochavermaydi.

Polifunksionallik, yaʼni bu kabi soʻzlarning soʻz turkumlariga munosabati masalasida fanda uzoq yillardan beri ikki xil qarash mavjud. Ayrim tadqiqotchilar bu borada: “Bir soʻz turkumi vazifasida ikkinchisining kelishi bu soʻzning bora-bora tamoman boshqasiga oʻtib olishi, yaʼni boshqa turkumga aylanishi bilan tugashi”ni taʼkidlasalar[4,27], boshqa tadqiqotchilar fikriga koʻra “barcha soʻzlarning gapda funksional oʻzgarish jarayoni doimo bir soʻz turkumining, albatta, boshqasiga aylanishi bilan tugallanganda edi soʻz turkumlari oʻz barqarorligini allaqachon yoʻqotgan boʻlib, bugungi kunda tilshunoslikda soʻz turkumlari tushunchasi va u bilan bogʻliq terminlar ham boʻlmas edi[7,210]”. Keyingi fikrga qoʻshilgan holda ayta olamizki, albatta, nutqiy kontekst soʻzlarni turkumlash uchun asos boʻla ololmaydi, yaʼni til sathi qonuniyatlari bilan hisoblashish soʻzlarni turkumlashdagi chalkashliklarga bir qadar yechim boʻla oladi. Toʻgʻri, ayrim soʻzlarning polifunksionallik xususiyati



bu soʻzda bora-bora ikki va undan ortiq paradigmada ham oʻrin topa olish imkoniyatini yaratgan.

Kuzatishlar koʻrsatadiki, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da morfologik belgisi ham sifat, ham ot tarzida koʻrsatilgan bir qator soʻzlar uchraydi [9;10;11;12;13]. Bular: ajnabiy, aylanma, aylanmashoq, ayri, ayyor, beldor, biqtirma, botiq, burma, burushiq, darveshona, dilorom, dilrabo, dimlama, dudama, faol, gigant, jazirama, jingalak, kasofat, keksa, kelajak, loyqa, malla, mudroq, murdor, mushkul, oq, parhez, peshqadam, poraxoʻr, qoʻshimcha, qovurma, qoʻshoq, qorongʻi, reza, rost, siniq, taajjub, terma, toʻqima, xilvat, yigʻinchoq, yolgʻon, yoriq, zax, oʻksik, shilt.

“Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da sifat-ot tarzida izohlanadigan mazkur soʻzlarni polisemiya, polifuksiya, omonimiya hodisasi nuqtayi nazardan uch guruhga boʻlib tavsiflash mumkin: 1-guruh (polisemantik soʻzlar) sirasida faol, gigant, mudroq, parhez, qoʻshoq, qorongʻi, reza, siniq, yigʻinchoq kabi; 2-guruh (polifuksional soʻzlar) sirasida ayyor, biqdirma, burma, burushiq, dilorom, dilrabo, dimlama, dudama, jazirama, jingala(k), kasofat, keksa, kelajak, loyqa, mushkul, peshqadam, poraxoʻr, qovurma, rost, xilvat, yolgʻon kabi; 3-guruh (omonimik soʻzlar) sirasida ajnabiy, ayri, aylanma, aylanmashoq, beldor, botiq, darveshona, malla, murdor, oq, qoʻshimcha, taajjub, terma, toʻqima, yoriq kabilar mansub.

Nutqiy vaziyati, semantik tabiatidan kelib chiqib turkumlighi belgilangan 1-guruh soʻzlaridan ayrimlarini kuzatamiz: GIGANT [yun. gigantos – ulkan, juda katta] 1 sft. Juda katta, ulkan; buyuk. Gigant qurilish. Odimlovchi gigant ekskavator, Shaxdam yurib borar, misli pahlavon. F.Zohid, Tuyamoʻmin qoʻshigʻi.

2 ot Oʻz ishi, ajoyib xislatlari bilan biror sohada salmoqli oʻrin egallagan shaxs, buyuk siymo. Navoiy kabi gigant sanʼatkorlar ijodida, masalan, didaktikada ham katta oʻrin berilgan. Gazetadan. [10, 497]

SINIQ 1 sft. Singan, parchalangan, biror yeri uchgan yoki darz ketgan, yorilgan. Siniq payola. Ana shu “bogʻi eram” endi egasiz uyday huvillab yotibdi, Siniq derazalardan qushlar uchib kirib-chiqib turibdi. S.Siyoyev. Otliq ayol.

2 sft. Sinib ishdan chiqqan, yaroqsiz holga kelgan. Siniq arava. Toʻtibu allaqayerda chang bosib yotgan dutorni olib chiqib artayotganida, Tojiboy kirib keldi. S.Zunnunova, Gulxan.

3. ot koʻchma Singan narsaning boʻlaklari. Jasura yigʻlamsiragancha payola siniqlarini tera boshladi. E.Aʼzam, Javob.

4 ot koʻchma Odam aʼzosining shikastlanib singan qismi, singan qoʻl, oyoq va sh.k. Xirurglar keng gulzor oʻrtasiga stol qoʻyib, siniqlarni gipslashmoqda,



POLAND



POLAND

yaradorlarni bintlashmoqda. “Sharq yulduzi”. Shuningdek, lug‘atda sinig so‘zining 5-, 6-, 7-, 8- ma’nolari ham izohlangan [11,511-512].

Ma’lum bo‘ladiki, sinig so‘zining dastlabki ma’nosidan tashqari qolgan barchasi (ikkilamchi vazifasi) bosh ma’nodan o’sib chiqqan. Yana shuni aytmoqchimizki, 2- hamda 3- ma’nolarni, nazarimizda, alohida-alohida ta’kidlab izohlashga hojat yo‘q. Har ikkala (piyolaning sinig‘i va suyakning sinig‘i) sharh ham bir ma’no ostida baholansa, maqsadli bo‘lardi.

Lug‘atda gigant so‘zining ikkinchi ma’nosini sharhlashda ham, nazarimizda, ko‘chma ma’no (ko‘chma) tarzidagi izoh keltirilsa, o‘rinli bo‘lar edi.

Polifunksional tarzida baholaganimiz so‘zlarda, ya’ni ularning turkumligini belgilashda, asosan, mazkur so‘zlarning sintaktik tabiati inobatga olinganligi ko‘rinadi. Masalan, dimlama, qovurma so‘zlarini kuzatamiz:

DIMLAMA 1 sft. Dimlab pishirilgan. Dimlama somsa. Dimlama kotlet. Ovqat vaqtida u o‘tirmadi, sirka-qalampirli yaxna kalla-pocha, dimlama jo‘ja, xullas, topgan-tutganini qo‘yib, jon-dilidan xizmat qildi. A.Muxtor, Asarlar.

2 ot Go’sht, yog‘ga piyoz, ko‘proq pomidor va savzavotlar so‘lib, shularning bug‘ida (selida) dimlab pishirilgan taom. Dimlama uchun albatta qo‘y go’shti bo‘lishi kerak. K. Mahmudov. O‘zbek taniq taomlari. Keltirilgan tugunni stol ustiga qo‘yib ochgan edi, hamma xonani dimlama hidi tutib ketdi. M.M.Do’st. Lolazor. Lug‘atda, shuningdek, 3-ma’no sharhi ham mavjud [9, 620].

QOVURMA. 1 sft. Qovuriladigan, yog‘da qovurib pishiriladigan; qovurilgan. Qovurma chuchvara. Momaga beringlar qovurma go’shtni. “Shirin bilan shakar”.

2. ot Go’sht hamda kartoshka, piyoz va b. sabzavotlardan qovurib, ozroq suv qiyib, dimlab pishiriladigan quyuq taom; qovurdoq. Ikki katta tovoqda qovurma olib chiqildi. Sh. Rizo, Qor yog‘di, izlar bosildi.

Har ikkala so‘z ham omonimiyaga yaqinroq hodisa hisoblanadi. Aslida, bu so‘zlar izohidagi birinchi ma’nolar (1 raqami ostida sharhlangan so‘z) nutqiy hosila sanalsa, ikkinchi ma’no ostidagi so‘z lisoniy birlikdir. Ular (dimlama – 1, dimlama – 2; qovurma – 1, qovurma – 2) ning tarkiban tahlili ham (asos va qo‘shimchalarga bo‘linishi) farqlanadi. Ikkinchi ma’no ostidagi so‘zlar esa ixtisoslashish (yaxlitlanish) mahsuli sanaladi.

Uchinchi guruh so‘zlari (ajnabiy, ayri, beldor, botiq, darveshona, malla, murdor, oq, taajjub, terma, yoriq v h.k.) kabilarni omonim so‘zlar sifatida baholash mumkin. Lekin lug‘atda bu kabi so‘zlar atrofidagi ma’nolar negadir rim raqamlari bilan emas, balki arab raqamlari bilan beriladi. Masalan, ayri so‘zi 4 ma’no ostida izohlanadi, shundan birinchi hamda to‘rtinchi ma’nolarida omonimiya yaqqol ko‘rinadi [9,57]. **AYRI** 1 sft. Biror joyidan ikkiga



POLAND



POLAND

tarmoqlangan. Ayri yo'l. Ayri yog'och. Ro'pradagi baland terakning ayri shoxida qag'illab turgan ola hakkaga angrayib qolgan edi. N.Aminov, Yog'onchi farishtalar.

...4 ot Ikki shaxchali tayoq, yog'och; tirgak. Shaftoli shoxlariga ayrilar qo'yildi. Ba'zi g'o'zalar ayri bilan tirab qoyilgan. I.Rahim, Hayot buloqlari [9, 57].

TERMA 1 sft. Saralab-saralab yig'ib, birlashtirib tashkil etilgan, tuzilgan. Terma futbol jamoasi...

2 ot folk. Baxshilar repertuarida dostonidan keyin, ikkinchi o'rinda turadigan, band tuzilishi erkin, uch qatordan 100-150 misragacha bo'ladigan folklor janri. Fozil Yo'ldosh o'g'li turli mavzularda termalar va dostonlar aytar edi. "O'zbek adabiyoti".

3. ot Umuman, xalq og'zaki ijodiga mansub, odatda to'rt misradan iborat qo'shiq turi [12,73].

Har ikkala so'zning izohi (ma'no zanjirining uzilganligi) ularning omonimligidan dololat beradi. Faqatgina terma so'zining birinchi ma'noda nutqiy hosilaligi ([fe'l+ma] qolipi hosilasi), ikkinchi, ya'ni xalq termalari ma'nosida ixtisoslashgan ma'noda kelishi (leksemalashganligi) uning omonimligiga soya solishi mumkin, xolos.

Xullas, sifat-ot oraliq so'zlarning lug'atdagi ifodasi, sifat hamda otlikka munosabati borasida quyidagi fikrlarni aytish mumkin. O'zbek tilshunosligida oraliq so'z turkumlari va ular bilan bog'liq nazariy fikrlar yetarlicha aytilgan bo'lsa-da, oraliq so'zlarning lug'atlardagi ifodasi, lug'atda so'z turkumlikka munosabati masalasi bo'yicha oz fikrlar mavjud. O'zbek tilshunosligida ot (predmetlik) va sifat (belgi-xususiyat) ma'nolarining o'zaro munosabati otlashish, sifatlashish, ravishlashish va h.k. doirasida ancha o'rganildi, lekin so'zlarni turkumlash/kategoriyalashda til va nutq hodisasini farqlash (lisoniy birliklardan nutqiy birliklarni farqlash) ga doim ham tadrijiy ahamiyat qaratilmaydi, shu bois so'zlarni turkumlashda bir qator ziddiyatlar uchraydi. Tilshunoslikda so'zlarning polifunksionalligi, omonimligi, bular natijasida so'z ma'nosi yoki ma'nolaridan biri bilan bir turkumdan ikkinchisiga o'tish hollari, so'z turkumlarining bir-biri vazifasini bajarib turishi va h.k.lar so'zlarni turkumlashda qiyinchilik tug'diradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Асадов Т.Ҳ. Сўз туркумлари тизимида равиш. Монография. –Т.: Мухаррир, 2010.
2. Ботирова А.Э. Ўзбек тилида сўз туркумларининг бирламчи ва иккиламчи вазифасининг функционал-синтактик таҳлили: Филол.фанлари номзоди... дис. –Қарши, 2018.



POLAND



POLAND

3. Элтазаров Ж.Д. Сўз туркумлари ҳақида лингвистик назариялар. Монография. – Самарқанд, 1996.
4. Фузайлов С. Ўзбек тилида равиш ва унинг сифат билан муносабати // Совет мактаби. – Тошкент, 1956. №1. – Б. 25-29.
5. Потебня А.А. Из записях по русской грамматике. Об изменении значения и заменах существительного. Т. III. – М.: Просвещение, 1968.
6. Суник О.П. Общая теория частей речи. –М. –Л., 1968.
7. Хўжаев Т. "Яхши" типдаги сўзларнинг гапда ҳол вазифасида қўлланишига доир// А.Навоий номидаги Самарқанд давлат университетининг асарлари. Янги серия. -№ 102. – Самарқанд, 1960.
8. Ўзбек тили грамматикаси. I том. –Т.: Фан, 1975.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т.: Ўз.мил.энц., 2006.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Т.: Ўз.мил.энц., 2006.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т.: Ўз.мил.энц., 2007.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Т.: Ўз.мил.энц., 2008.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Т.: Ўз.мил.энц., 2008.